

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONDA AKADEMIK LITSEYLAR VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI TIZIMI TARIXI



Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari

Millat Umidi Universteti Biznes Boshqaruv Fakulteti
Polatxojayeva Nodirabegim

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekiston da talim sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar haqida yozilgan. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tizimining tashkil topishi, rivojlanish jarayonlari va bugungi kundagina ularning o'rnini egallagan yangi ta'lim muassasalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, mazkur tizimning yoshlarning kasb tanlashi va kelajakga tayyorlanishi to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, mustaqillik, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, islohot, milliy dastur, kadrlar tayyorlash.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatda barcha sohalarda va talim tizimida ham ko'p ishlar amalga oshirildi. Yangi jamiyat qurish jarayonida yangi avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega yoshlarni tayyorlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri boldi. Shu maqsadda 1997-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi yaratildi

1997-

yilda qabul qilingan **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** mamlakat ta'lim tizimini butunlay yangilashga asos bo'ldi. Bu dasturga ko'ra, o'rta maxsus, kasb-

hunar ta'limi ikki yo'nalishda — **akademik litseylar** va **kasb-**

hunar kollejlari shaklida boldi. Bu tizim yoshlarni nafaqat umumiy bilimlar bilan, balki zamonaviy kasb-

hunar ko'nikmalari bilan ham taminlashni maqsad qilgan.

Asosiy qism

Akademik litseylar ta'limni chuqurlashtirib o'qitish, o'quvchilarga tanlagan yo'nalishlari bo'yicha yaxshi bilim berish, universitetlarga tayyorlash uchun ta'skil etilgan. Ular odatda o'quvchilarga aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar yoki xorijiy tillar yo'nalishida chuqurlashtirilgan ta'lim berishgan. Akademik litsey bitiruvchilari universitetlarga kirishda yuqori natijalar ko'rsatishgan bu esa ularning yaxshi o'qitib turganligini isbotlagan.

Kasb-

hunar kollejlari esa yoshlarni amaliy kasbga tayyorlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari uchun malakali kadrlar yetkazib berish vazifasini bajargan. Kollejlarda o'quvchilar uch yil davomida o'z yo'nalishlariga mos kasbni o'rganishgan. Bu tizim mamlakatda yoshlarni mutaxassislika tayyorlanishga katta hissa qo'shdi. Shu orqali bitiruvchilar oliy ta'lim va mehnat bozoriga ham tayyor holda chiqarilganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yilda qabul qilingan qarorlar natijasida ta'lim tizimida yangi ishlar boshlangan. Akademik litseylar soni qisqartirilib, faqat oliy ta'lim muassasalari qoshida faoliyat yuritadiganlari saqlab qolindi. Kasb-hunar kollejlari esa birinchi ketin kasb-hunar maktablari, texnikumlar va kollejlarga aylantirildi. Ushbu o'zgarishlar ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga yo'naltirish maqsadida amalga oshirildi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimi har bir yoshga o'z qiziqishlari va imkoniyatlariga mos yo'nalishni tanlash imkonini bermogda. Kasb-



hunar maktablari va texnikumlarda zamonaviy laboratoriyalar, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik asosida amaliy mashg'ulotlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa yoshlarni mehnat bozorida yaxshi kadrlar sifatida tayyorlashda yordam bermoqda

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tizimi mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Ushbu tizim orqali ko'plab yoshlar o'z kasbini egallab, turli sohalarda faoliyat yuritmoqda. Bu esa nafaqat bandlik darajasini oshirish, balki jamiyatda mehnat madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnika va qishloq xo'jaligi sohaslarida yetakchi mutaxassislar sifatida tanilgan. Akademik litseylar esa oliy ta'lim tizimiga sifatli abituriyentlar yetkazib berish orqali ilmiy salohiyatni kuchaytirgan.

Bu tizimning iqtisodiy samarasi shundaki, kadrlariga bo'lgan ehtiyoj ichki imkoniyatlar orqali ta'minlandi. Yoshlarning kasb-hunar kollejlari orqali o'z kasbini egallashi ularning ijtimoiy faolligini oshirib, o'zini jamiyatda foydali inson sifatida his etishiga sabab bo'ldi.

Bugungi ta'lim tizimidagi innovatsion rivojlanishlar

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar asosida rivojlanmoqda. Akademik litseylar va texnikumlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinib, o'quv jarayonlari elektron platformalar orqali olib borilmoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, raqamli kutubxonalar kabi yangiliklar yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Bundan tashqari, yangi o'quv dasturlari joriy qilinmoqda, zamonaviy texnologiyalar, chet tillarini chuqur o'rganish – bularning barchasi ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar yosh avlodni zamonaviy kasb va bilimlar bilan muoffaqiyatga erishishga xizmat qildi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tizimi o'z vaqtida mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Bugungi kunda bu tizim o'rnini egallagan yangi kasb-hunar maktablari va texnikumlar esa xalqaro tajriba asosida rivojlanmoqda. Bu o'zgarishlar bilimli va malakali yoshlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.
– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 1997-yil.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997-yil, №9.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.